

SOLIQQA TORTISH MAQSADIDA ЕРНИНГ KADASTR QIYMATLARINI ANIQLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Kamilov Abror Anvarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizda so‘ngi yillarda mamlakatda soliqqa tortish maqsadida kadastr qiyatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirishdan samarali foydalanish masalalari hamda soliq idoralari tomonidan soliq ma’murchiligi instrumentlaridan foydalanish orqali kadastr qiyatlarini aniqlash va huquqbuzarliklarni bartaraf etish, soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash sxemalarini o‘z vaqtida oshkor qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish, soliq ma’murchiligining yanada optimallashtirish, qonun hujjatlaridagi qaramaqarshiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq ma’murchiligi, tadbirkorlik sub’ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar, mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, ko‘chmas mulk, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda yer solig‘i ma’muriyatichilagini ta’minlash bo‘yicha bugungi kunda soliq amaliyotining raqamli platformalariga o‘tish, soliq xizmati organi xodimlari malakasini oshirish uchun sarmoya kiritish, aholi o‘rtasida yer solig‘ini to‘lashning ahamiyati va uning jamiyatga keltiradigan foydalari haqida tushuntirish ishlarini olib borish, huquqiy asoslarini isloh qilish, qolaversa, Juhon Banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorliklar o‘rnatishga oid ilmiy tadqiqotlar dolzarb vazifaga aylangan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Rus olimlaridan Lukova L.N., Bukina I.S. [1]. Xorijiy mamlakatlarda soliq solish ob’ektlari qiymatini shakllantirishning ikkita asosiy tizimi mavjud:

- birinchidan, davlat hokimiyatining turli tarmoqlarining me’yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan qat’iy qiymat;
- ikkinchidan, ko‘chmas mulkni davlat bahosida aniqlangan qiymat (kadastr qiymati).

Iqtisodchi olim Pardaev[2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida xususiy mulk (uylar)ning kadastr hujjatlaridagi qiymati va bozor bahosi o‘rtasidagi tafovutlarni tartibga solish hamda mulkning prognoz ko‘rsatkichlariga aniqlik kiritish maqsadida soliq tushumlari, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulkning inventar qiymatidan, belgilangan me’yorlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. eng kam miqdorni belgilash va ushbu me’yoriy qiymatdan kelib chiqib soliqni hisoblash usulini takomillashtirishga urg‘u berdi.

G. Safarov [3]. qishloq xo‘jaligi bo‘limgan korxonalardan ular foydalanadigan yerlarning kadastr qiymatidan undiriladigan yer solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmini joriy etishni taklif qildi va ushbu soliq undirish mexanizmini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqdi.

Sittikova L. R. [4]. Uning so‘zlariga ko‘ra, er uchastkalari uchun yagona soliq va bino va inshootlar uchun soliqning ajratilishi bir qator mamlakatlarda, masalan, Chexiya Respublikasida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida soliq tizimi uchun o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Slovakiya, Ruminiya va Estoniya. [5]. Drobina I.A. rus olimlaridan. yuridik shaxslarning mol-mulki solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini birlashtirish yo‘li bilan ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish taklif etildi.

Mikhina E.V. [6]. O‘z fikrlarida ko‘chmas mulk solig‘i joriy etilishining mahalliy byudjet daromadlari bazasiga ta’sirini tahlil qilib, tegishli tavsiyalar berdi O‘ylaymizki, yuqorida tilga olingan olimlarning fikrlari aholining kam ta’minlangan qatlamini hisobga olmaydi. Loginova T.A. [7]. U o‘zining ilmiy qarashlarida ko‘chmas mulkni joriy qilish va amaliyotga tatbiq etishda aholining ijtimoiy qatlamini hisobga olish zarurligini ta’kidladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil va induksiya va deduksiyani baholash usullaridan foydalanilgan. Qiyosiy usuldan foydalangan holda kadastr qiyamatlarini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish va ularni tahlil qilish bo‘yicha xorijiy tajriba ma’lumotlari o‘tkazildi va ilmiy xulosalar berildi.

4. Natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 71-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta’minalash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-sonli Farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida qabul qilingan hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Davaktiv agentligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini uchun yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari ma’lumotlar bazasining kadastr raqami bo‘yicha “Yerxususiylashtirish” AAT bilan integratsiya qilinishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-aprelda “Fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar hamda o‘zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e‘tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o‘tkazish to‘g‘risida” imzolangan Farmoni noqonuniy o‘zlashtirilgan yerlarni qonuniylashtirib soliq ob‘ektini rasman ro‘yxatga olish va soliq solishda katta amaliy ahamiyat kasb etdi.

Yer solig‘iga tortiladigan ob‘ektlar hisobini yuritishni takomillashtirish maqsadida mutasaddi tashkilotlar bilan o‘zaro axborot almashinuvining sifatini yaxshilash muhim ahamiyatli hisoblanadi. Buning uchun yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi Mahalliy davlat hokimiyatlari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitalari, Davlat soliq qo‘mitasi shuningdek, ularning hududiy bo‘linmalari o‘rtasida samarali axborot almashinuvini ta‘minlab beradigan zamонавиъ axborot kommunikatsiya tizimini joriy etish hamda nazorat choralarini kuchaytirish

talab etiladi. Bu borada ilg‘or soliq tajribalari soliq to‘lovchilar tomonidan foydalanilayotgan yerkarni o‘z vaqtida va to‘liq soliqqa tortishni hamda yerlardan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida, soliq majburiyati to‘g‘risida ma‘lumotlar taqdim etuvchi idoralarning ma‘lumotlar bazalarini soliq organlarining axborot-resurs bazasiga on-line tarzda integrasiya qilish (bog‘lash) o‘zining ijobiy natijasini bergan.

Quyidagi jadval ma‘lumotlari asosida mamlakatimizda ortiqcha yer maydoni mavjud sub‘ektlar soni, ularga qonunchilik bo‘yicha ajratilgan yer maydoni, haqiqatda foydalanilayotgan yer maydoni, ortiqcha egallangan yer maydoni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin.

Soliq qonunchiliga muvofiq yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko‘rsatilganidan kattaroq hajmda foydalangan jismoniy shaxslarga nisbatan yer solig‘ining summasiga ekvivalent miqdorda uch baravar soliq hisoblanishi belgilangan bo‘lsada, jadvalda keltirilganidek, hali hamon yerlardan samarasiz va xujjatlarsiz foydalanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada mavjud.

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida 20 mln gektardan ortiq, shu jumladan 3,2 mln gektar sug‘oriladigan ekin yer maydonlaridan foydalanilib, aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur xom ashyo yetishtirilmoqda.

1-jadval

Jismoniy shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanilayotgan yer uchastkalari to‘g‘risida ma‘lumot¹

T/ P	Hudud nomi	Ortiqcha yer maydoni mavjud sub‘ektlar soni	Qonun bo‘yicha ajratilgan yer maydoni (ga)	Haqiqatda foydalanilay otgan yer maydoni (ga)	Ortiqcha egallangan yer maydoni (ga)
1	Qoraqalpog‘iston R.	279 316	20 927,9	67 043,2	46 115,3
2	Andijon	274 200	34 952,1	55 483,4	20 531,3
3	Buxoro	327 421	19 173,6	59 039,4	39 865,8
4	Jizzax	129 835	25 722,7	42 302,5	16 579,7
5	Qashqadaryo	600 519	11 961,2	131 663,5	119 702,3
6	Navoiy	52 851	24 245,5	27 699,1	3 453,6
7	Namangan	355 660	19 782,9	50 804,5	31 021,6
8	Samarqand	527 201	31 614,0	127 686,6	96 072,5
9	Surxondaryo	410 418	20 230,1	91 885,2	71 655,1
10	Sirdaryo	70 169	14 887,1	22 817,9	7 930,8
11	Toshkent v.	318 107	49 099,4	71 835,0	22 735,5
12	Farg‘ona	251 116	63 822,3	83 488,6	19 666,3
13	Xorazm	188 967	20 714,7	38 032,3	17 317,6
14	Toshkent sh.	26 472	8 804,2	9 340,1	535,9
Jami		3 812 252	365 937,7	879 121,2	513 183,5

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ кўмитаси маълумотлари.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, respublika miqyosida ortiqcha yer maydoni mavjud sub'ektlar soni 2 929 048 tani tashkil qilgan. Ularga nisbatan qonun hujjatlari bo'yicha ajratilgan yer maydoni 44 093,9 gettarni haqiqatda foydalanilayotgan yer maydoni 533 157,6 gettarni tashkil qilib 489 063,7 gettarga salbiy farq qilmoqda. Qonunbuzilish holatlari Surxondaryo viloyatida eng katta ulushga ega ya'ni 366 246 nafar sub'ektlar tomonidan 78 286,1 gettar yer maydoni ortiqcha egallangan.

Ortiqcha yer maydoni mavjud sub'ektlarning bir nafariga o'rtacha to'g'ri keladigan noqonuniy egallangan ortiqcha yer maydonlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda ya'ni har bir sub'ekt tomonidan o'rtacha 42 sotiq yer maydoni noqonuniy ortiqcha o'zlashtirilgan. Noqonuniy ravishda yer maydonlarni o'zlashtirilishi Toshkent shahrida yeng past ko'rsatkichga ega ya'ni qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan har bir sub'ektga o'rtacha 1,8 sotiqdan to'g'ri kelmoqda.

Sug'oriladigan maydonlarning unumdarligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda. Natijada, 2008–2022 yillar mobaynida 1,7 mln gettardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti hamda 2,5 mln. gettar maydonlarning meliorativ holatini yaxshilanishiga erishildi.

Biroq, global iqlim o'zgarishi natijasida so'nggi yillarda davriy ravishda kuzatilayotgan suv tanqisligi va ichki irrigatsiya tarmoqlarining asosiy qismi yaroqsiz holatga kelganligi sug'oriladigan ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashishiga va yillar davomida foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda yer solig'ini hisoblash maqsadida aniqlanadigan unumdarlik ko'rsatkichi va yerning normativ qiymatini hisoblashda drenaj tarmoqlarining eskirganligi, yerlarning sho'ranganlik darajasining yuqoriligi inobatga olinmaganlik holatlari ayrim yaroqsiz holga kelgan yerlardan ko'p soliq undirilishiga sabab bo'lmoqda. Belgilangan soliq stavkalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular bir necha yillar davomida barcha viloyatlarning hududlari kesimida faqat o'sish tendensiyasiga ega. Bundan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, vakolatli organlar tomonidan yerlarning normativ qiymatlarini baholashda sho'rلانishga sabab bo'luvchi tabiiy omillarni, drenaj tarmoqlarining eskirish darajasini inobatga olib barcha hududlar bo'yicha yerlarning qiymatini qayta ko'rib chiqish masalasi juda muhimdir.

Bugungi kunda ayniqsa cheklangan resurslardan oqilona foydalangan byudjet daromadlarini ko'paytirish bozor iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri deb hisoblaymiz. Mazkur cheklangan resurslardan biri "Er uchastkalari" dan samarali foydalanmog'imiz va soliqqa tortish borasida yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar va chet el tajribasi asosida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaymiz:

Mamlakatimizda ham jahon tajribasi asosida yer uchastkasi hamda unda joylashgan bino va inshootlarning qiymatiga nisbatan soliqqa tortish tizimida "ko'chmas mulk" solig'ini joriy etish amaldagi yer solig'ini hisoblash mexanizmini soddalashtiradi. Ikkinci tomondan ko'chmas mulk solig'inining joriy etilishi davlatning fuqarolari oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi, yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilish holatlarida mulkdorlarga yerning bozor qiymatidan kelib chiqib, zararlarning o'rnini qoplab berish majburiyatini keltirib chiqaradi;

Jismoniy shaxslar tomonidan foydalanilayotgan yer ob'ektlarini maqsadida ko'chmas mulk solig'i joriy etilgandan so'ng, bittadan ortiq yer uchastkasi va ko'chmas mulklari mavjud bo'lgan fuqarolarga ortiqcha ko'chmas mulk ob'ektlari va yer uchastkalarining qiymatidan kelib chiqib, progressiv stavkani joriy qilish bilan ma'lum darajada soliqqa tortishningadolatliligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga muvofiq yer davlat mulki — umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi hamda oldi-sotdi qilinmaydi, ayrboshlanmaydi, hadya etilmaydi, garovga qo'yilmasligi belgilangan. Qonunchiligidizda yer uchastkasi egalik qilish huquqiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs mazkur yerni sotish, garovga qo'yish, ijaraga berish huquqlari mavjud emas. Xalqaro tajribalarga tayangan holda mamlakatimizda yer uchastkasi egalariga yerni sotish, garovga qo'yish, ijaraga berish kabi barcha imkoniyatlarning yaratilishi yerni mulk sifatida qarab undan samarali foydalanilishiga xizmat qiladi. Umumi jihatdan mulohaza etganda, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i iqtisodiy ahamiyati va muhimlik darajasi keng qamrovli hisoblanib, davlat byudjetida o'z salmog'iga ega. Xususan, umumi xususiyatlari sifatida yerning qiymatidan undirilishi, undirish tartiblarida mahalliy hokimiyat organlari mas'ulligi, to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi yerning baholangan qiymatidan kelib chiqib hisoblanishi, muntazam undirib borilishi, soliq stavkasi yerning joylashgan joyi va qiymatiga qarab o'zgarishi va yerlarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar yoki chegirmalar mavjudligi, qolaversa, bu soliqdan tushumlar mahalliy davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun kerakli manbaa ekanligi va urlardan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy dastak vazifasi kabilar bilan ifodalilanadi.

Hisoblab chiqilgan ko'chmas mulk ob'ektining kadastr qiymati faqat jismoniy shaxsning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun qo'llaniladi. Kadastr qiymati belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilingan jismoniy shaxslar mulki bo'lgan turar joylar, kvartiralar, bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining bog' uylari (dala-hovlilar) uchun hisoblab chiqiladi. Ko'p kvartirali uylardagi xonardonlar va yakka tartibdagi uy joylarning kadastr qiymatini aniqlash Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk ob'ektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi Nizomda ko'zda tutilgan . Shuningdek, soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan noturar ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan noturar ko'chmas mulk ob'ektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibi belgilangan .

Noturar ko'chmas mulk ob'ektlarining hisoblab chiqilgan kadastr qiymati faqat jismoniy shaxslarning mulk solig'ini hisoblash uchun qo'llaniladi. O'z navbatida ushbu hisob kitoblarda ob'ektning muhandislik kommunikatsiyalarga ulanishiga ketgan xarajatlar, ko'chmas mulk ob'ektini sotish, qayta sotish, ijaraga berishdan olinadigan daromad, foya me'yori, to'lanishi lozim bo'ladigan soliqlar inobatga olinmagan. Shu sababli soliq bazasi sifatida foydalanilayotgan ko'chmas mulkning "shartli" kadastr qiymati boshidan bozor qiymatidan ancha past bo'lgan.

Fikrimizcha, bugungi kunda soliq tizimini kompleks isloq qilish, yer uchastkalari va ko'chmas mulkning hisobini yuritish hamda baholashda zamonaviy usullarni joriy

qilish, mulk bilan bog‘liq amaliyotda yuzaga kelayotgan nizolarni hal qilish, ko‘chmas mulk bozoriga investitsiya jalg qilish, bozorni liberallashtirish, davlat mulki va yer uchastkalarini xususiyashtirish zarurati ko‘chmas mulkni bozor qiymatiga maksimal yaqinlashtirilgan kadastr qiyomatini joriy qilishga sabab bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, yer uchastkalari va mol-mulkni soliqqa tortishni yanada takomillashtirish, ularni baholash va hisobini yuritishda zamonaviy usullarni joriy qilish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish maqsadida O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi .

Ko‘chmas mulk ob’ektlarining bozor qiymatiga asoslangan kadastr qiyomatini aniqlash, eksperiment tariqasida quyidagi hududlarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumanida — turar va noturar (tijoriy) joylarga mo‘ljallangan ko‘chmas mulk ob’ektlari;

Navoiy viloyati Navoiy shahrida — sanoat ob’ektlari;

Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida — rekreatsion zonalar va alohida qo‘riqlanadigan hududlar ob’ektlari;

Buxoro viloyati Romitan tumanida — qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan ob’ektlar.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijiy ekspertlarni jalg qilish orqali muddati belgilangan vazifalar ijrosi bugungi kunga qadar to‘liq bajarilmasdan qolmoqda. Fikrimizcha mazkur vazifalar ijrosini lozim darajada bajarish uchun moliyaviy jixatdan ko‘mak va va ilmiy yondashuvlar zarur bo‘lmoqda. Olingan dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, kvartiralarning amaldagi va taklif etilayotgan kadastr qiymati o‘rtasidagi farq tuman bo‘yicha o‘rtacha 5,3 baravar, yakka tartibdagi uy-joylar bo‘yicha 4,2 baravarga teng. Bunda yangi kadastr qiymatiga o‘tishda soliq tushumlarining o‘sishini ta’minalash rejalashtirilmaydi, ya’ni daromadlarning umumiyligi o‘sishi soliqlarni adolatli qayta taqsimlash orqali soliq stavkasining miqdori bilan tenglashtiriladi. Shu sabali ko‘chmas mulk ob’ektlariga soliq olish maqsadida ularning ro‘yxatini aniqlashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini soddalashtirish ko‘chmas mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarining vujudga kelishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi, bekor bo‘lishi bo‘yicha ma’lumotlar qonun bilan tartibga solinishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Yuridik shaxslar tomonidan mol-mulkni bozor bahosiga yaqinlashgan soliq hisoblash tizimini joriy qilish maqsadida, yuridik shaxslarning mol-mulk ob’ektini joylashuviga qarab soliq bazasini aniqlashda 1 kv. metr uchun mulkning eng kam qiyamatlarini belgilash lozim. Rivojlanshgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etish. Buning natijasida soliqni hisoblab chiqarish mexanizmi soddalashadi, adolatlilik, shaffoflik prinsipi ta’minalanadi. Soliqni hisobini yuritish, to‘lash jarayoni soddalashib uning xarajatlari kamayadi. Dasturiy maxsulotda ishlash tezligi oshadi. Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan mol-mulk yoki yer solig‘idan qarzdorlik mavjud ortiqcha to‘lovlar hisobidan kamayadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Гафур Гулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.

Лукова Л.Н., Букина И.С. (2017) Налоговые системы зарубежных стран: учебник для бакалавриата и магистратуры. Юрайт. с. 428.

Пардаев У. (2018) Давлат бюджетини прогнозлаштириш услубиётини тақомиллаштириш. Фалсафа доктори (Phd). дисс.автореф. – Тошкент. 25-26 б.

Ғ.А.Сафаров. Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. ёзилган диссертацияси автореферати. Т.Академия. 2006 й. 26 б.

Ситдикова Л. Р., (2016). Кадастровая оценка земельных участков. Экономические науки, 1-4.

Дрожжина И.А. Формировани систем налогообложени объектов недвижимости на основе дифференциированног подхода. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. автореферати.-О.:2005.-6.12.

Михина Е.В. Налог на недвижимость и перспективы его развития в регионе. автореферати.-М.:2005й.б.-б.

Логинова Т.А. Стратегия развития налогообложения недвижимого имущества в Российской Федерации. Автореферати.-М.:2018й.-б. 7.